

V. Nizolarni hal qilish.

5.1. Tomonlar o'rtasida mazkur shartnomani bajarish, o'zgartirish va bekor qilishdan kelib chiqadigan nizo, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Shartnomani bajarish, bekor qilishda yetkazilgan zararni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar o'zaro kelishuv yo'li bilan xal etolmasa ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Sirdaryo viloyati Guliston tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

VI. Favqulodda vaziyat holatlari (Fors-major)

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu tabiiy hodisalar va boshqa fors-major holatlar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa va ushbu holatlar shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa:

6.2. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati fors-major holatlari kuchga kirgan davrga, shuningdek ushbu holatlar keltirib chiqargan oqibatlarga mutanosib ravishda keyinga qoldiriladi.

6.3. Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'proq davom etsa, bajaruvchi va buyurtmachi ishni davom ettirish yoki uni saqlab qolish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini muhokama qiladi.

6.4. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, unda tomonlarning har biri shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidir.

VII. Boshqa shartlar.

7.1. Ushbu shartnomaga kelgusida kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda tuzilgan, taraflar tomonidan imzolangan va muhrlangan taqdirda qonuniy hisoblanadi.

7.2. Shartnomani bajarishni bir tomonlama rad etish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

7.3. Ushbu shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi ushbu shartnoma birxil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzilgan:

7.4. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro roziligi bilan amal qiladi va qo'shimcha kelishuv shaklida amalga oshiriladi.

VIII. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI.

"Sirdaryo viloyati Mintaqaviy yullarga buyurtmachi xizmati DUK"

Guliston shahar Toshkent k-3 uy

Tel. 94345-77-00

STIR 207 252 998

OKNKH

SHXR 20210000100779073001

Moliya vazirligi Yagona G'azna hisob varag'i

XR 20210000100779073001

MFO 00363

Z.R. Bazarov

"Sirdaryo viloyati qurilishda tanlov savdolarini tashkil etish konsalting markazi "

Guliston shahar M. Axtamova k. 30 -uy

Tel. 227-64-42

STIR: 202 585 476

X/r 2021 0000 3038 3676 6001

TIF Milliy bank Guliston sh.

MFO 00363

A. Sangirov

HUQUQIY XULOSA.

O'zaro tuzilayotgan shartnomaning shartlari, xususan, taraflarning huquqlar, majburiyatlari, kafolatlari, ishlarining bajarish muddatlari, hisob-kitob va to'lovlar, ishlab chikarish, fors-major, shartnomani bekor qilish xamda taraflarning mulkiy javobgarlik asoslari, nizolarni hal qilish tartibi va yakuniy talablar Fuqarolik kodeksining 26, 27, 28 va 37-boblari hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun talablariga mos keladi, shartnoma tuzuvchi shaxslar shartnomani imzolash huquqiga ega, shartnomani imzolasa bo'ladi deb hisoblayman.

Sirdaryo MYBX DUK

Bosh yuriskonsulti:-

F.X. Usarov



ТАНЛАШ БАЁННОМАСИ

2022 йил

Катнашчилар :

Хайъат раиси:	З.Базаров	Директор
Аъзолари:	З.Таджикулов	Бош муҳандис
	Ф.Усаров	Бош юристконсулт
	М.Култаев	Лойиха таъминот бўлими бошлиғи
	Ў.Худойбердиев	Тендерларни ташкил этиш бўлими
	Ш.Таниев	Бош ҳисобчи
	А.Абдумуминов	Ишлаб чиқариш бўлими бош мутахассис

КУН ТАРТИБИ

1. SIRDARYO V.QURILISHDA TANLOV SAVDO TASHKIL ETIISH KON. MARKAZI таклифини ўрганиб чиқиш.
2. ГУП "QURILISHDA TANLOV SAVDOLARI VA NARXLARNI SHAKLLANTIRISH TOSHKENT VILOYATI XUDUDIIY KONSALTING MARKAZI" таклифини ўрганиб чиқиш.

Кун тартибида қўйилган масала юзасидан хайъат раиси З.Базаров сўзга чиқиб, йиғилиш катнашчиларига Ўзбекистон республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги 684-сонли қонунинг 7-боб 60-моддасининг талабларига мувофиқ Ширин шаҳар Фарход МФЙ Ахиллик-1 қўчасини тендер савдоларини ўтказиш учун SIRDARYO V.QURILISHDA TANLOV SAVDO TASHKIL ETIISH KON.MARKAZI, ГУП "QURILISHDA TANLOV SAVDOLARI VA NARXLARNI SHAKLLANTIRISH TOSHKENT VILOYATI XUDUDIIY KONSALTING MARKAZI"лардан таклифлар электрон шаклда жойлаштирилганлигини маълум қилди.

Хайъат аъзолари ҳамда таклиф берувчиларнинг электрон шаклда жойлаштирилган ҳужжатлари куриб чиқилганда куйидаги таклифлар берилганлиги маълум бўлди.

1. SIRDARYO V.QURILISHDA TANLOV SAVDO TASHKIL ETIISH KON. MARKAZI таклифи 1 000 000 сўм

2. ГУП "QURILISHDA TANLOV SAVDOLARI VA NARXLARNI SHAKLLANTIRISH TOSHKENT VILOYATI XUDUDIIY KONSALTING MARKAZI" таклифи 1 010 000 сўм

Хайъат раиси: (З Базаров) ушбу кўрсатилган таклифни хайъат аъзоларига таништирди. Овозга қўйиш натижасида Ширин шаҳар Фарход МФЙ Ахиллик-1 қўчасини тендер савдоларини ўтказиш учун буйича SIRDARYO V.QURILISHDA TANLOV SAVDO TASHKIL ETIISH KON. MARKAZI техник жиҳатдан салоҳияти юқори бўлганлигини инобатга олиб, ушбу ташкилот билан 1 000 000 сўмга шартнома тузишга қарор қилинди.

Харид комиссияси аъзоларида мазкур лот 22110012192541 иштирокчилари билан аффилиланганлик хусусиятига эга алоқадорлик мавжуд эмас.

Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуннинг (ЎРК-684-сон, 22.04.2021 й.) 23-моддасига кўра, иштирокчи ва унинг аффилиланган шахси мазкур лот (лар)да иштирок этмайпти.

Маълумотлар stat.uz саҳифаси орқали текширилди.

Ушбу 22110012192541 сонли лот рақами буйича Сирдарё МҲХБ ДУК томонидан тасдиқланган танлаш баённомаси юзасидан ҳеч қандай эътироз ёки нарозиликлар юзага келмади.

Овозга қўйиш натижасида 7 та овоз билан SIRDARYO V.QURILISHDA TANLOV SAVDO TASHKIL ETIISH KON. MARKAZI ғолиб чиқди. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда хайъат

ҚАРОП ҚИЛДИ:

1. SIRDARYO V.QURILISHDA TANLOV SAVDO TASHKIL ETIISH KON.MARKAZI, ГУП "QURILISHDA TANLOV SAVDOLARI VA NARXLARNI SHAKLLANTIRISH TOSHKENT VILOYATI XUDUDIIY KONSALTING MARKAZI" ташкилотлардан тушган таклифлари эътибога олинсин.

2. Танлов ғолиби этиб SIRDARYO V.QURILISHDA TANLOV SAVDO TASHKIL ETIISH KON.MARKAZI қилинсин ва ушбу ташкилот билан 1 000 000 сўмга шартнома тузилиши мақкуллансин.

Аъзолари:

З.Таджикулов

Ф.Усаров

М.Култаев

Ў.Худойбердиев

Ш.Таниев

А.Абдумуминов